Mazkur maqolada soliq tizimini o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida klassik iqtisodiy nazariya, zamonaviy institutsional yondashuv va empirik tahlil usullari o'zaro uyg'unlashtirildi. Bu esa soliq tizimi samaradorligini nafaqat nazariy, balki amaliy va institutsional jihatdan ham chuqur baholash imkonini berdi. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslovchi usul asosiy metod sifatida tanlanib, klassik iqtisodiy maktablar tomonidan ilgari surilgan soliq samaradorligi mezonlari zamonaviy xalqaro institutlar amaliyoti bilan solishtirildi. Jumladan, A. Smit, A. Pigu va F. Ramsay nazariyalari XVJ va IHTT tomonidan qo'llanilayotgan zamonaviy baholash usullari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada soliq tizimini tahlil qilish jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot doirasida klassik iqtisodiy nazariya, zamonaviy institutsional yondashuv hamda empirik tahlil usullari o'zaro uyg'unlashtirildi. Bunday yondashuv soliq tizimi samaradorligini chuqur va tizimli o'rganish imkonini yaratdi.

Xususan, nazariy tahlil orqali soliq tizimining asosiy iqtisodiy tamoyillari va ularning amal qilish mexanizmlari yoritildi. Institutsional yondashuv doirasida soliq boshqaruvi sifati, normativ-huquqiy muhit va soliq ma'murchiligining roli baholandi. Empirik tahlil usullari esa mavjud statistik ma'lumotlar asosida soliq tizimining amaliy natijalarini aniqlashga xizmat qildi. Mazkur metodologik uyg'unlik soliq tizimi samaradorligini nafaqat nazariy, balki amaliy va institutsional nuqtayi nazardan ham asosli baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq samaradorligi sohasidagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq samaradorligini o'lchash uchun yagona, umumlashtirilgan va universal metodologik tizim hozircha shakllanmagan. Ushbu holat mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy muammosini belgilaydi. Soliq samaradorligi tushunchasining ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligi sababli, zamonaviy amaliyot metodologik va amaliy masalalar nuqtayi nazaridan to'rtta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadi.

Birinchi yo'nalish soliqlar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy og'ishlarni miqdoriy baholashning murakkabligi bilan bog'liq bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalish doirasida "o'lik yuk" (Deadweight Loss) ni o'lchash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko'rsatkich soliqlar ta'sirida farovonlikning sof yo'qotilishini ifodalaydi, biroq uni bevosita o'lchash amaliy jihatdan murakkabdir. Shu sababli iqtisodiy tahlilda ekonometrik modellash usullari, shuningdek, kapital va mehnatga bo'lgan talab hamda taklif elastikliklari haqidagi nazariy farazlardan foydalaniladi. Bunda dastlabki taxminlarning aniqligi soliq siyosati bo'yicha asosli xulosalar chiqarish uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, soliq neytralligini o'lchash masalasi iqtisodiy agentlar xulq-atvoriga soliqning qanchalik ta'sir ko'rsatishini baholash imkonini beradi. Amaliyotda bu masalani tahlil qilish uchun murakkab tuzilishga ega va yuqori sifatli boshlang'ich ma'lumotlarni talab qiluvchi umumiy muvozanat modellari (CGE) qo'llaniladi.

Ikkinchi yo'nalish ijtimoiy samaradorlikni talqin qilishda tamoyillarning subyektivligi va ular o'rtasidagi muvozanat masalalarini qamrab oladi. Xususan, "adolatli soliq solish" tushunchasining mavhumligi uni miqdoriy baholashni murakkablashtiradi. Ushbu masalani yoritishda Jini va Atkinson indeksleri⁴ keng qo'llaniladi. Jini koeffitsienti butun daromad taqsimoti bo'yicha tengsizlikni aks ettiruvchi obyektiv ko'rsatkich bo'lsa [7], Atkinson indeksi jamiyatning tengsizlikka bo'lgan munosabatini hisobga oluvchi subyektiv o'lchov sifatida soliq siyosatini ijtimoiy baholash imkonini beradi [8]. Mazkur indekslarning maqsadi va metodologik asoslaridagi farqlar ularni daromadlarni hisobga olish va bilvosita soliqlar ta'sirini baholashda turlicha natijalar berishiga olib keladi. Shuningdek, tenglik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanat masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yuqori darajadagi progressivlik ayrim hollarda mehnat va investitsiya rag'batlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muvozanatni baholash ko'pincha normativ yondashuvlarga tayanadi (J. Mirrlees, 2002) [9].

Uchinchi yo'nalish soliq ma'murchiligi va ma'muriy samaradorlikni baholash bilan bog'liq bo'lib, bunda Jahon bankining "Biznes yuritish" (Doing Business)⁵ metodologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan,

4 Jini koeffitsienti (Gini coefficient) daromadlar yoki iste'mol taqsimotidagi tengsizlik darajasini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkich bo'lib, odatda 0 dan 100 gacha bo'lgan foizlarda o'lchanadi. Bunda 0 mutlaq tenglikni, ya'ni aholining barcha qatlamlari teng daromadga ega ekanini, 100 esa mutlaq tengsizlikni, ya'ni daromadlar o'rtasidagi keskin tafovutni anglatadi. Jahon banki metodologiyasiga ko'ra, Jini koeffitsienti Lorens egri chizig'iga asoslanib hisoblanadi. Ushbu egri chiziq daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi ideal teng taqsimotdan qanchalik og'ishini yaqqol namoyon etadi.

Atkinson indeksi (Atkinson Index) daromadlarning haqiqiy taqsimlanishini ideal, ya'ni to'liq teng taqsimot bilan taqqoslashga asoslangan ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu indeks jamiyatning daromadlarni tenglashtirish maqsadida umumiy daromadning qanchalik ulushidan voz kechishga tayyor ekanini ifodalaydi. Atkinson indeksi ham foizlarda o'lchanib, 0 mutlaq tenglikni, 100 esa mutlaq tengsizlikni anglatadi. Mazkur ko'rsatkich ijtimoiy afzalliklar va tengsizlikka nisbatan jamiyatning munosabatini hisobga olish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

5 2021-yildan boshlab Jahon bankining "Doing Business" reytingi bekor qilinib, uning o'rniga "Business Ready" (B-READY) baholash tizimi joriy etildi.



yashirin xarajatlar (compliance costs)ni baholashda “Soliqlarni to’lash” (Paying Taxes) indeksi qo’llaniladi. Mazkur indeks mamlakatlararo taqqoslash imkonini bersa-da, biznes subyektlari, ayniqsa kichik tadbirkorlik uchun xos bo’lgan real xarajatlarni to’liq aks ettirmasligi mumkin. Bundan tashqari, soliq boshqaruvi sifatini baholashda “yig’ish xarajatlari nisbati”, ya’ni soliq tushumlariga nisbatan ma’muriy xarajatlar ulushi qo’llaniladi. Ushbu ko’rsatkich soliq tizimini boshqarish samaradorligini tahlil qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

To’rtinchi yo’nalish ma’lumotlar yetishmasligi va metodologik chekllovlar bilan bog’liq. Xususan, yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi soliq bazasini to’liq qamrab olish imkoniyatlarini cheklaydi va soliq yuki hamda soliq salohiyati hisob-kitoblarida aniqlikni pasaytiradi [10]. Shuningdek, mikro darajadagi ma’lumotlarga kirish imkoniyatining cheklanganligi soliq organlari va tadqiqotchilar o’rtasida ma’lumotlar almashinuvi murakkabligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, samaradorlikni baholashda qo’llaniladigan ko’plab ko’rsatkichlar statik xarakterga ega bo’lib, soliq islohotlarining investorlar va iste’molchilarning uzoq muddatli xulq-atvoriga ta’sirini to’liq hisobga olish imkonini bermaydi.

Soliq tizimi samaradorligini tahlil qilishda asosiy o’rin tutuvchi jihatlardan biri — bu soliq tamoyillari va ularning amaliyotda tatbiq etilishidir. Nazariy jihatdan ushbu tamoyillar davlat xarajatlarini moliyalashtirish zarurati bilan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirlarni muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar ilk bor A. Smit tomonidan shakllantirilgan bo’lib [1], ularning mohiyati va zamonaviy talqini keyingi bo’limda batafsil yoritiladi (1-jadval).

1-jadval. A. Smitning soliq solish tamoyillari va ularning zamonaviy talqin

Tamoyil	Tamoyilning mazmuni	Zamonaviy talqin
Adolatlilik (Equity)	Soliqlar soliq to’lovchilarning daromad darajasi yoki to’lov qobiliyatiga mutanosib ravishda undirilishi lozim.	Vertikal va gorizontal adolatlilikni baholash, progressivlik darajasini aniqlash hamda taqsimlovchi ta’sirni hisobga olish ⁶ .
Aniqlik (Certainty)	Soliq to’lash mexanizmi aniq va shaffof bo’lishi, ya’ni to’lov muddati, usuli va miqdori oldindan belgilanishi zarur.	Soliq qonunchiligining shaffofligi, barqarorligi va prognoz qilinishi talabini ta’minlash.
Qulaylik (Convenience)	Soliq to’lovlarining soliq to’lovchi uchun qulay usulda va qulay vaqtda amalga oshirilishi kerak.	Elektron boshqaruvni rivojlantirish, hisobot shakllarini soddalashtirish hamda soliqlarni manbada ushlab qolish mexanizmlarini keng qo’llash (JShDS va QQS zamonaviy ma’murchiligining asosi).
Tejamkorlik (Economy)	Soliqni undirish va boshqarish bilan bog’liq davlat xarajatlari minimal darajada bo’lishi lozim.	Ma’muriy samaradorlik talabi, ya’ni soliq yig’ish xarajatlari koeffitsientining past darajada bo’lishi ⁷ .

Yuqorida ko’rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni shakllantirish tamoyillariga tayanib, soliq tizimi samaradorligini baholashda keng qamrovli diagnostika o’tkazishning to’rtta asosiy yo’nalishini guruhlash va umumlashtirish mumkin. Mazkur yo’nalishlar soliq tizimining fiskal, iqtisodiy va institutsional jihatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Fiskal (budjet) samaradorlik soliq tizimining davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo’lgan barqaror daromadlarni shakllantirish qobiliyatini tavsiflaydi [11]. Ushbu yondashuvning mohiyati soliq tushumlarining hajmi, barqarorligi va makroiqtisodiy ko’rsatkichlar bilan o’zaro bog’liqligini tahlil qilishdan iborat. Fiskal samaradorlikni baholashda bir qator muhim indikatorlardan foydalaniladi.

Birinchi asosiy ko’rsatkich sifatida soliq yuki (SY) ajratib ko’rsatiladi. Ushbu ko’rsatkich jami soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga (YAIM) yoki yalpi hududiy mahsulotga (YAHM) nisbati sifatida aniqlanadi. Soliq yuki iqtisodiyotga tushayotgan umumiy fiskal bosim darajasini ifodalab, davlatning qayta taqsimlash imkoniyatlari hamda soliq siyosatining makroiqtisodiy muvozanatga ta’sirini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

6 Xalqaro valyuta jamg’armasi (XVJ) metodologiyasiga hamda umumiy soliqqa tortish nazariyasi doirasiga ko’ra, vertikal adolatlilik shuni anglatadiki, turli to’lov qobiliyatiga, ya’ni turli daromad yoki boylik darajasiga ega bo’lgan shaxslar turlicha miqdorda soliqlar to’lashlari lozim. Amaliyotda bu tamoyil, odatda, yuqori daromad yoki boylikka ega bo’lgan shaxslar uchun yuqoriroq, progressiv tarzda oshib boruvchi soliq yukini qo’llash orqali namoyon bo’ladi.

XVJ metodologiyasiga va umumiy soliqqa tortish nazariyasiga muvofiq, gorizontal adolatlilik esa bir xil iqtisodiy holatga ega bo’lgan shaxslar, ya’ni daromadi, boyligi yoki to’lov qobiliyati teng bo’lgan soliq to’lovchilar bir xil miqdorda soliqlar to’lashlari zarurligini anglatadi. Ushbu tamoyil soliq tizimida teng sharoitlarda teng munosabatni ta’minlashga qaratilgan.

7 Undirish xarajatlari koeffitsienti soliq organlarining ma’murchilik faoliyati bilan bog’liq operatsion xarajatlarning muayyan davr mobaynida yig’ilgan soliqlarning umumiy hajmiga nisbatini ifodalovchi ko’rsatkichdir. Mazkur ko’rsatkich soliq ma’murchiligi samaradorligini va davlatning soliq yig’ish jarayonidagi xarajatlar darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega.

$$SY = \frac{\text{Soliq tushumlari va yig'implarining umumiy summasi}}{\text{Yalpi ichki mahsulot (Yalpi hududiy mahsulot)}} \times 100\%$$

Hisob-kitobning soddaligi mazkur ko'rsatkichdan mamlakatlararo taqqoslashlarda keng foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, u soliq tizimi tuzilmasining ichki jihatlarini chuqur tahlil qilish hamda yig'ilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini to'liq baholash imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi.

Ikkinchi muhim indikator sifatida soliq elastikligi (E_t) ajratib ko'rsatiladi. Ushbu ko'rsatkich soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki soliq bazasidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirlik darajasini ifodalaydi. Soliq elastikligi soliq tizimining iqtisodiy o'sish sharoitlariga moslashuvchanligini baholash, shuningdek, fiskal barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim tahliliy ahamiyatga ega.

$$E_t = \frac{\% \Delta T}{\% \Delta Y}$$

$\% \Delta T$ – Davr mobaynida soliq tushumlarining mutlaq o'zgarishi, %

$\% \Delta Y$ – Davr mobaynida soliq bazasining (YAIM yoki milliy daromadning) mutlaq o'zgarishi, %.

Mazkur ko'rsatkich soliq tizimining iqtisodiy o'sish jarayonlariga qanchalik moslashuvchan ekanligini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, qonunchilikdagi islohotlar natijasida yuzaga keladigan tarkibiy o'zgarishlarni alohida ajratib ko'rsatishning murakkabligi ushbu indikatorni amaliy qo'llashda muayyan metodologik cheklavlarni keltirib chiqaradi.

Uchinchi muhim indikator sifatida yig'iluvchanlik indeksi (K_n) ajratib ko'rsatiladi. Ushbu ko'rsatkich amalda yig'ilgan soliq tushumlarining hisoblangan, ya'ni potensial yig'ilishi mumkin bo'lgan soliq majburiyatlariga nisbati orqali aniqlanadi. Yig'iluvchanlik indeksi soliq ma'murchiligi samaradorligini, soliqqa rioya etish darajasini hamda soliq tizimining institutsional barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

$$K_n = \frac{\text{Haqiqiy soliq tushumlari}}{\text{Hisoblangan soliq majburiyatlari}} \times 100\%$$

Mazkur hisob-kitob soliq yukining real darajasini, soliqqa rioya etish holatini hamda soliq organlari faoliyatining samaradorligini tavsiflaydi. Shu bilan birga, ilgari shakllangan va muddati o'tgan soliq qarzlarning mavjudligi ushbu ko'rsatkich qiymatini ma'lum darajada buzib ko'rsatishi mumkin, bu esa uni talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Yig'iluvchanlik indeksi (K_n) muqobil yondashuv sifatida soliq uzilishi⁸ (Tax Gap) ko'rsatkichi orqali ham aniqlanishi mumkin. Ushbu ko'rsatkich haqiqiy yig'ilgan soliqlar bilan hisoblangan, ya'ni potensial yig'ilishi lozim bo'lgan soliq majburiyatlari o'rtasidagi tafovutni ifodalaydi hamda soliq ma'murchiligi va institutsional samaradorlikni chuqurroq baholash imkonini beradi.

$$T_g = 1 - \frac{\text{Soliq uzilishi}}{\text{Potensial soliq majburiyati}}$$

Soliq uzilishi (Tax Gap) soliqdan qochish, hisob-kitoblardagi xatolar, muddati o'tgan soliq qarzlari hamda yashirin iqtisodiyot faoliyati natijasida davlat budjeti ko'radigan yo'qotishlarni ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich soliq tizimining real fiskal imkoniyatlari va institutsional samaradorligini baholashda muhim tahliliy ahamiyatga ega.

Potensial majburiyatlar esa barcha daromadlar to'liq deklaratsiya qilingan va amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq barcha soliqlar to'liq to'langan taqdirda budjetga tushishi mumkin bo'lgan maksimal soliq tushumlari hajmini aks ettiradi. Potensial majburiyatlar va soliq uzilishini aniqlash yuqori darajadagi metodologik murakkablik bilan tavsiflanadi. Shu sababli ularni baholashda ekonometrik usullar, makroiqtisodiy modellastirish hamda statistik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish keng qo'llaniladi.

To'rtinchi muhim yo'nalish sifatida soliq xarajatlari tahlili ajratib ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv taqdim etilgan soliq imtiyozlari, preferensiyalar va istisnalar, ya'ni "yashirin subsidiyalar" natijasida yuzaga keladigan budjet yo'qotishlarini baholashga qaratilgan. Soliq xarajatlarning umumiy hisob-kitobi potensial va haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi farqni aniqlash orqali soliq imtiyozlarining maqsadga muvofiqligi, samaradorligi hamda belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishga qo'shgan hissasini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, potensial tushumlarni aniq hisoblashdagi murakkabliklar, jumladan yashirin sektor hajmi va soliq to'lovchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlar, ushbu yo'nalishning asosiy metodologik cheklavlari sifatida namoyon bo'ladi.

8 Soliq uzilishi (Tax Gap) — budjet yo'qotishlari miqyosini aniqlash hamda soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiluvchi fiskal samaradorlikning muhim ko'rsatkichidir.



Ma'muriy samaradorlik soliq organlari faoliyatining natijadorligini hamda davlat va soliq to'lovchilar uchun ma'muriy xarajatlarni minimallashtirish darajasini tavsiflaydi [12]. Mazkur blok soliq ma'murchiligi sifatini kompleks baholashga xizmat qiluvchi bir qator ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Xususan, asosiy indikatorlardan biri sifatida yig'ish xarajatlari koeffitsienti (K_{iv}) qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkich soliq organlarining ma'muriy xarajatlarning yig'ilgan soliqlarning umumiy hajmiga nisbatini ifodalab, soliq boshqaruvi samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

$$K_{iv} = \frac{\text{Soliq xizmati operatsion xarajatlari}}{\text{Soliq tushumlarining umumiy miqdori}}$$

Soliq xizmatining operatsion xarajatlari soliq organlari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlarni qamrab oladi. Bular jumlasiga xodimlarning ish haqi, binolarni saqlash, transport xarajatlari, soliq qarzlari undirish bo'yicha sud jarayonlari bilan bog'liq xarajatlar hamda boshqa tashkiliy va texnik xarajatlar kiradi. Soliq tushumlarining umumiy summasi esa muayyan davr mobaynida davlat budjetiga haqiqatan kelib tushgan barcha soliqlar va yig'ilmalarning jami hajmini ifodalaydi.

Ma'muriy samaradorlikni baholashda ikkinchi muhim ko'rsatkich sifatida soliqlarni to'lash indeksi qo'llaniladi. Ushbu indeks Jahon bankining "Business Ready" (ilgari — Doing Business) metodologiyasi yoki PricewaterhouseCoopers (PwC) baholariga asoslanib shakllantiriladi. Indeks soliqqa rioya etish uchun sarflanadigan vaqt (soatlar soni), amalga oshiriladigan to'lovlar soni hamda umumiy soliq stavkasini o'lchaydi. Hisoblash metodologiyasi so'rovnomalar va amaldagi soliq qonunchiligini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, u biznes subyektlari uchun soliq yukini mamlakatlararo qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich soliq nazorati va soliq ma'murchiligi sifatini to'liq aks ettirmaydi.

Soliq nizolarini tahlil qilish sudlarga kelib tushgan soliq nizolarining soni va ulushi, shuningdek, soliq organlarining sud jarayonlaridagi yutuq va mag'lubiyatlari nisbatini o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu indikator soliq qonunchiligi sifatini, soliq organlari qarorlarining huquqiy asoslanganligini hamda huquqiy madaniyat darajasini baholash imkonini beradi. Biroq sud amaliyotiga bog'liqlik va xo'jalik yurituvchi subyektlarning nizolarni sud orqali hal etishga bo'lgan faolligi ushbu ko'rsatkichni talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Raqamlashtirishning tizimli tahlili soliq ma'murchiligi jarayonlarining avtomatlashtirilish darajasi, xavf-xatarga yo'naltirilgan yondashuvning mavjudligi, soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash muddati va boshqa ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Amaliy jihatdan bu jarayon soliq organlarining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) orqali baholanadi. Jumladan, risk-tahlil bilan qamrab olish darajasi, kameral tekshiruvlar muddati va raqamli xizmatlar ulushi muhim indikatorlar sifatida xizmat qiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik soliq tizimining iqtisodiy xulq-atvorga, investitsion faollikka, daromadlarni taqsimlash jarayonlariga va ijtimoiy adolatga ta'sirini baholashni nazarda tutadi [13]. Ushbu yo'nalish doirasida bir qator metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Xususan, institutsional yondashuv soliq tizimining adolatlilik, betaraflik, soddalik va shaffoflik tamoyillariga muvofiqligini baholashga qaratilgan bo'lib, u A. Smit tomonidan ilgari surilgan mezonlarga tayanadi. Mazkur yondashuv qiyosiy mamlakatlararo tahlil va ekspert baholash usullarini o'z ichiga oladi hamda tizimli kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ekspert baholashning subyektivligi ushbu yondashuvning muayyan cheklovi hisoblanadi.

Modellashtirish va ekonometrik tahlil soliqqa tortish stavkalari va qoidalaridagi o'zgarishlarga iqtisodiy subyektlarning munosabatini prognoz qilish imkonini beradi. Ushbu vositalar to'plami soliq islohotlarining iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga bo'lgan ehtimoliy ta'sirini oldindan baholashga xizmat qiladi. Biroq sifatli ekonometrik tahlilni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli va ishonchli boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash jarayoni muayyan qiyinchiliklar bilan kechadi.

Neytrallik tahlili soliq tizimining iqtisodiy qarorlarga minimal darajada ta'sir ko'rsatishini baholashga qaratilgan bo'lib, bunda "o'lik yuk"ni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani aniqlash va miqdoriy baholash murakkab bo'lgani sababli, ilmiy tadqiqotlarda murakkab ekonometrik modellardan keng foydalaniladi. Adolatlilik tahlili esa soliq tizimining daromadlar taqsimotiga ta'sirini baholaydi va progressiv, regressiv yoki proporsional soliq yukini aniqlashga xizmat qiladi. Hisob-kitoblar soliqlar va ijtimoiy transfertlar inobatga olinganidan so'ng Jini koeffitsienti yoki Atkinson indeksiga asoslanadi. Ushbu tahlil soliq tizimining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qo'shgan hissasini aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) soliq tizimidagi buzilishlarni o'lchash orqali fiskal barqarorlik va tarkibiy islohotlarga alohida e'tibor qaratadi [14]. Jumladan, samarali chegaraviy soliq stavkalari investitsiyalar va mehnatga qo'shimcha birlikdan olinadigan daromadning qanchalik soliqqa tortilishini ko'rsatadi. Shuningdek, XVJ tomonidan ishlab chiqilgan TaxFit mikrosimulyatsiya modeli soliqlar va ijtimoiy transfertlardan keyingi daromadlar taqsimoti asosida ijtimoiy tengsizlikni baholash imkonini beradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tadqiqotlarida esa "soliq klini" tushunchasiga alohida e'tibor qaratilib, u ish haqi, jismoniy shaxslar daromad solig'i va ijtimoiy ajratmalarning mehnatga rag'bat va

bandlikka ta'sirini baholashda qo'llaniladi [16]. Bundan tashqari, IHTT ekologik soliqlar va gender jihatdan soliqqa tortish masalalarini ham keng qamrovda tahlil qiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida soliq tizimini tahlil qilishda qo'llaniladigan klassik va zamonaviy metodologik yondashuvlar tizimli ravishda o'rganildi hamda ularning nazariy va amaliy jihatlarini qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari soliq tizimi samaradorligi ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy kategoriya ekanligini, uni faqat soliq tushumlari hajmi orqali baholash yetarli emasligini ko'rsatdi. Shu bois soliq tizimi samaradorligi fiskal natijalar bilan bir qatorda iqtisodiy rag'batlar, resurslar taqsimoti va ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan ham kompleks baholanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari soliq tizimi samaradorligini baholashda yagona va umum e'tirof etilgan metodologik tizim mavjud emasligini tasdiqladi. Klassik iqtisodiy nazariyada iqtisodiy samaradorlik va neytrallikka ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda taqsimlovchi ta'sirlar, ma'muriy samaradorlik va institutsional muhit sifati muhim o'rin egallaydi. Bu esa turli metodologiyalar asosida olingan natijalarni bevosita solishtirishni murakkablashtiradi.

Iqtisodiy og'ishlarni, jumladan "o'lik yuk"ni baholashda ekonometrik modellarga tayanish natijalarning ma'lum darajada farqlanishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy adolatni baholashda qo'llaniladigan Jini va Atkinson indeksleri ham metodologik jihatdan turlicha yondashuvlarni aks ettiradi. Ma'muriy samaradorlikni o'lchashda esa yashirin xarajatlar va ma'lumotlar yetishmasligi asosiy cheklov sifatida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi: — soliq tizimi samaradorligini baholashda yagona ko'rsatkichdan foydalanish o'rniga fiskal, ma'muriy va ijtimoiy samaradorlikni qamrab olgan kompleks indikatorlar tizimini qo'llash maqsadga muvofiq; — soliq siyosatini tahlil qilishda klassik iqtisodiy nazariya mezonlarini zamonaviy empirik va institutsional yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarur; — ijtimoiy adolatni ta'minlashda soliq tizimining taqsimlovchi ta'siri muntazam ravishda Jini va Atkinson indeksleri orqali baholanib, ularning metodologik cheklovlari ham inobatga olinishi lozim.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun soliq samaradorligini oshirishda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish va soliqqa rioya etish darajasini oshirishga qaratilgan institutsional islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, soliq tizimini tahlil qilishda kompleks va ko'p o'lchovli metodologik yondashuvni qo'llash soliq siyosati samaradorligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smit, A. *Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot*. 1776-y.
2. Pigou, A. *Farovonlik iqtisodiyoti*. 1920-y.
3. Ramsey, F. *Soliqqa solishning ba'zi masalalari*. 1927-y.
4. Moresi, S. (1998). Optimal taxation and firm formation: a model of asymmetric information. *European Economic Review*, 42(8), 1525–1551. [https://doi.org/10.1016/S0014-2921\(97\)00096-2](https://doi.org/10.1016/S0014-2921(97)00096-2)
5. BMTTD; Oxford kambag'allik va inson taraqqiyoti tashabbusi (OPHI). *Milliy ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini (KO'KI) qanday ishlab chiqish kerak: BRMga erishish uchun KO'Kdan foydalanish*. 2019-y. https://ophi.org.uk/sites/default/files/2024-03/Handbook_2019_Russian_2023.pdf
6. Barro, R. J. (2000). Inequality and Growth in a Panel of Countries. *Journal of Economic Growth*, 5(1), 5–32. <https://doi.org/10.1023/A:1009850119329> Havola: <https://link.springer.com/article/10.1023/A:1009850119329>
7. World Bank. Glossary (WDI): Gini index. Havola: <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/world-development-indicators/series/SI.POV.GINI>
8. Oxford Reference. Atkinson index (ta'rif). Havola: <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/oi/authority.20110810104408650?p=emailA0XAia5pcP7Rg&d=/10.1093/oi/authority.20110810104408650&print>
9. Mirrlees, J. A. (1976). Optimal tax theory: A synthesis. *Journal of Public Economics*, 6(4), 327–358.
10. Jahon banki. *Kambag'allik va ijtimoiy oqibatlar tahlili bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar*. 2003-y. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/523231468762331252/pdf/304050RUSSIAN01ers0Guide01may020031.pdf>
11. IMF. (2025). *Options for Strengthening Ireland's Fiscal Framework* (WP/25/149). Havola: <https://www.imf.org/-/media/files/publications/wp/2025/english/wp25/149-source-pdf.pdf>
12. World Bank. (2024). *Methodology Workshops: Taxation (Business Ready)*. Havola: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/ac3cfd5b4bb79da828db8bd5a1f0646-0540022024/related/BReady-2024-Methodology-Workshops-Taxation.pdf>
13. OECD. (2016). *Tax Design for Inclusive Economic Growth* (OECD Taxation Working Papers No. 26). Havola: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2016/07/tax-design-for-inclusive-economic-growth_g17a283a/5jlv74gk0g7-en.pdf
14. IMF. (2019). *Structural Transformation and Tax Efficiency*. Havola: <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/001/2019/030/article-A001-en.xml>
15. IMF. (1992). *Chapter 5: Efficiency Considerations in Tax Policy*. Havola: <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781557751911/ch005.xml>



16. OECD. (2025). *Taxation to support the social economy*. Havola: https://www.oecd.org/en/publications/social-economy-in-europe_3432de93-en/full-report/taxation-to-support-the-social-economy_3f1ea516.html
17. Pulatov, D. va boshq. (2025). Neobxodimost ob'edineniya aktsiznogo naloga na nefteprodukty v Respublike Uzbekistan. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 3(10).
18. Pulatov, D. X., Ugay, D. S. (2023). Vyyavlenie vzaimosvyazi mezhdu stranovym riskom i makroekonomicheskimi parametrami s tsel'yu uluchsheniya pozitsii Uzbekistana v kreditnom reytinge OESR. *Science and Innovation*, 2 (Special Issue 13), 151–155.
19. Pulatov, D. va boshq. (2025). O'zbekistonda investitsion jozibadorlikning ortib borishi jahon miqyosida joriy etilayotgan Business Ready reytingidagi baholash natijalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 3(11).
20. Pulatov, D. va boshq. (2025). "Mikrosimulyatsion modellar" va ular yordamida iqtisodiy siyosatga oid qarorlarning tadbirkorlik subyektlariga ta'sirini baholashdagi ahamiyati. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 3(12).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100